

MILLIY MADANIYATIMIZ RAVNAQIDA MUMTOZ MUSIQANI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Qahramon Boboqulov,
Jizzax Davlat pedagogika instituti
Musiqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning azal-azaldan shakllangan ma'naviy merosi, boy madaniyati, takrorlanmas san'ati o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning estetik did va tarbiyasiga munosib hissa qo'shishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, madaniy hayot, san'at, musiqa, musiqa san'ati, madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, yosh avlod, etetik did, ma'naviyat, ma'naviy meros.

O'zbek jamiyati hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib, xalqimiz ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim hissa qo'shib kelmoqda. Ma'lumki, xalqimiz azal-azaldan o'zining salmoqli ma'naviy merosi, boy madaniyati, takrorlanmas san'ati bilan dunyoni lol qoldirib kelgan. San'atkorlarimizning chet el sahnalarida qozongan yutug'i, o'zbek musiqasining chet ellik muxlislarni lol qoldirayotgani, diqqat bilan tinglab, o'zlaricha xirgoyi qilishlari bejizga emas.

O'lmas sarchashmalarimiz sanalmish urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, marosim va udumlarimiz, o'lan va yor-yorlarimiz, milliy mumtoz kuy va qo'shiqlarimiz o'zbek xalqining qadimiyligi madaniyati qanchalik boy ekanligidan dalolat beradi. San'atning barcha turlari o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning estetik did va ehtiyojlarining tarkib topishi, tarbiyasiga munosib hissa qo'shishi lozim.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash, unutilmas an'analarni keng ommalashtirish va ularni chuqur o'rganish uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga murojaatnomasida

ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o'ta sharaflı vazifadir"¹.

Xususan, bugungi kun tezkor ilm-fan taraqqiyoti nuqtai nazaridan qaraganda musiqa madaniyati fani sir-asrorlarini chuqur o'rganish, shuningdek, yosh avlodni o'z ixtisosligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimga ega bo'lgan barkamol inson qilib tarbiyalash bugungi kunimizning asosiy vazifalaridan biridir. Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, intiluvchan, izlanuvchan, har tomonlama kamol topgan yosh avlodni yengib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda milliy madaniyatimizning tub ildizi va jon tomiri bo'lgan mumtoz musiqa hamda xalq og'zaki ijodi durdonalarini asrab-avaylash borasidagi olib borilayotgan ezgu ishlar samarasi bois san'atning mazkur turlarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 15-fevraldag'i «Madaniyat va sport sohasida boshqaruvtizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4956- sonli Farmoni ijrosini amalga oshirish hamda 2017-yil 17-noyabrdagi «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2018-yil noyabrdagi «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi hamda «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarorlari, «Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori, shuningdek, 2019-yil 19-martda ilgari surilgan «Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish» bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning 5-chi yo'naliishiga asosan yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24 январь 2020 йил. www.uzo.uz.

turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarishda musiqa fanining yangi davr talablari asosida o'qitilishini ta'minlash vazifalari ko'zda tutilgan.

Xalqimizning nomoddiy meroslarini avlodlarga yetkazish, milliy turizmni yanada rivojlantirish, shuningdek, xalqlar orasida do'stlik, madaniy aloqani mustahkamlash oliy ta'lif muassasasi talabalari, bo'lajak pedagoglar zimmasiga, shuningdek, ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan ustoz-murabbiylar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbek va xorij musiqa cholg'u asboblarida ma'lum bir kuyni ijro etish chuqur bilim, ko'nikma va malakani talab etadi. Bu borada ustoz ko'rsatmalariga amal qilish, ulardan qadimiylar qadriyatlarimizni o'rganish bugungi kun talabidir.

Buning uchun esa ustozning o'zi ham yaxshi tarbiyalangan, chuqur bilim va intellektual salohiyatga ega bo'lishi, o'z shogirdlarining yoshi, xarakteri, bilim doirasi, tajribasini hisobga olgan holda ularga saboq berishi alohida ahamiyatga ega.

Har bir insonda cholg'uda kuy chalishni o'rganish istagi paydo bo'lar ekan, avvalo, kuy chalmoqchi bo'lgan cholg'u asbobi (masalan, tanbur)ning yaratilish tarixi, ijro usullari va mohir ijrochilar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsagina, cholg'u asbobida ijro etish malakalarini egallash ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi.

Bugungi tezkor zamonda yoshlarning intelluktual salohiyali yuksak bo'lishiga erishish davr talabidir. Shu jihatni inobatga olgan holda o'zbek xalq musiqa sana'atida alohida o'rinn tutgan tanbur cholg'usining yaratilish tarixi, cholg'u asbobida kuy ijro etish usullari hamda o'zbek xalq musiqasi o'tmishi haqida ma'lumot berish bugun biz tarbiyalayotgan yoshlarga musiqaning inson kamolotidagi o'rnini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Maqsadimiz - yoshlarimiz o'zbek musiqasi va musiqa san'ati durdonalari bilan yaqindan tanishish, milliy musiqa san'ati mo'jizalari, musiqashunoslarimizning o'lmas merosi mohiyatini har tomonlama anglab yetsin, yuksak madaniyatli insonlar bo'lib kamol topsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Omonov, X. (2020). О РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ УЗБЕКИСТАНА И АЗЕРБАЙДЖАНА. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(10), 1-2. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2808

Omonov, X. (2020). НЕКОТОРЫЕ СТРАНИЦЫ ИЗ ЖИЗНИ Ю.Г. КОН: ПРЕДАННЫЙ ДУШОЙ УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКЕ. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(10), 1-3. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2809

Omonov, X. (2020). A look at the history of Uzbek music. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(10), 1-7. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2811

Sayfiddinova, M., & Mingjigit, X. (2021). San'at olamidagi chamanzorlar. *Журнал музыки и искусства*, 2(2). извлечено от <https://pshedu.jspi.uz/index.php/art/article/view/3457>

<http://dx.doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00754.0>

Xolbekov, M., & Ismoilova, Z. (2021). Ilm va e'tiqod. *Журнал музыки и искусства*, 2(2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view/3514>

Boychaeva N.A, Abilov M.N, & Xolbekov M.A. (2021). THE IMPORTANCE OF ARIAS AND DUETS IN PERFORMANCE IN MUSICAL DRAMA CREATED IN HISTORICAL PROCESSES. *Archive of Conferences*, 18(1), 21-25. Retrieved from <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/988>